

ATOQLI OTLAR TAVSIFI VA TADQIQI MUAMMOSI BORASIDA AYRIM  
MULOHAZALAR

**Yakupova Kamila Turmaxammetovna,**

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti assistent o'qituvchi*

*e-mail: [kamilayakupova1984@gmail.com](mailto:kamilayakupova1984@gmail.com)*

*ORCID iD: 0009-0005-4835-3328*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada atoqli otlarning semantik xususiyatlari, lingvistik tabiati va tasniflanishiga oid nazariy qarashlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda onomastik birliklarning tasnifi hamda atoqli otlar ma'nosi masalasiga doir turli yondashuvlar o'rganildi. Natijada atoqli otlarning murakkab semantik tuzilishga ega ekanligi va ularni tasniflashda tipologik yondashuv muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi.

**Kalit so'zlar:** atoqli ot, onomastika, onim, semantika, tasnif, antroponim, toponim, konnotonim, poetonim, tipologik yondashuv.

**Abstract.** This article analyzes the theoretical views regarding the semantic features, linguistic nature, and classification of proper nouns. The study examined various approaches to the classification of onomastic units and the meaning of proper nouns. As a result, it was found that proper nouns have a complex semantic structure, and a typological approach is important in their classification.

**Keywords:** proper name, onomastics, onym, semantics, classification, anthroponym, toponym, connotonim, poetonim, typological approach.

**Аннотация.** В данной статье анализируются теоретические взгляды на семантические особенности, лингвистическую природу и классификацию имен собственных. В исследовании были рассмотрены различные подходы к классификации ономастических единиц и значению имен собственных. В результате было установлено, что имена собственные имеют сложную семантическую структуру, и типологический подход важен для их классификации.

**Ключевые слова:** собственное имя, ономастика, оним, семантика, классификация, антропоним, топоним, коннотоним, поэтоним, типологический подход.

**Kirish.** 1980-yillardayoq V. D. Bondaletov atoqli otda leksik ma'noning mavjudligi yoki mavjud emasligi, uning mazmun aks ettirish xususiyatiga ega bo'lishi yoki yoki mutlaq rasmiyatchilik uchungina qo'llanishi, uning turdosh otlar semantik maydoniga nisbatan qamrov ko'lamini qanday ekani, uning lingvistik, fonetik, mantiqiy, psixologik va boshqalar ma'no tabiati o'zida nimalarni aks ettirishi, atoqli otlar va turdosh otlarning ma'no va boshqa ko'rsatkichlariga ko'ra kontrastiv munosabati nimalarni aks ettirishi borasidagi savollarni anchagina murakkab hamda bahstlab ekanini qayd etib o'tgan. [1;22-23] Bugungi kun nuqtai-nazaridan qaralganda mazkur savollar hali ham o'zining mufassil yechimi hamda javobini topmagani ularning o'z dolzarbligini yo'qotmaganini anglatadi. Mazkur tadqiqot doirasida qiyoslab o'rganilishi ko'zda tutilgan ingliz va qoraqalpoq tillarining zamonaviy onomastik tahlili ularda atoqli otlar chog'ishtirma tadqiqi va ularning tasniflanish mezonini, atoqli otlar semantikasi va ularga xos xususiyatlar, umumiy metodologiyaning ishlab chiqilishi, atoqli otlarning til birligi sifatida belgilanishi va onomastik metatil kabi asosiy bahsli nazariy masalalar borligini ko'rsatadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Atoqli otlarning ko'plab ta'riflari mavjud bo'lib, ular odatda atoqli otlarning turdosh otlarga yoki tilda mavjud barcha ismlarga qarama-qarshiligi

munosabatiga asoslangan bo'lad. Atoqli otlarning eng aniq va to'liq ta'rifini Fonyakova ta'kidlaganidek, "ot so'z turkumiga mansub birliklarning universal funktsional – semantik kategoriyasi, nutqiy birliklarning alohida qatlami, birlikdagi jonli va jonsiz obyektlarni belgilash va aniqlash uchun mo'ljallangan, xalq tilida, nutqida va madaniyatida bu obyektlar haqidagi individual tushunchalar va umumiy g'oyalarni ifodalovchi og'zaki belgining o'ziga xos turi" deb hisoblash mumkin [2;21].

An'anaga ko'ra, atoqli otlar sinfi o'z navbatida kichik guruhlar yoki kategoriyalarga ajraladi. Mazkur turkumga mansub birliklarning tasnifi eng murakkab masalalardan biri bo'lib, atoqli otlar leksikasida aniq ishlab chiqilgan klassifikatsiyaning mavjud emasligi ham buning yaqqol dalili bo'la oladi. Muammo, asosan, atoqli otlarning antropomim va toponimlar kabi katta guruhlar o'z-o'zidan bir-biriga mantiqan zid bo'lgan kategoriyalarga bo'linish xususiyatiga ega emasligida aks etadi. Shuningdek, Kryukova ta'kidlaganidek: onimlarning leksik sathdagi tasniflanishi muammolari "onomastik periferiyasida" sodir bo'lad (I.V. Kryukova).

Bunday tasniflashlarning bir nechasi bugun kun ilm-faniga ma'lum, ulardan eng taniqlilari A.V. Superanskaya, O.I. Fonyakova va N.V. Podolskaya tomonidan ishlab chiqilgan. Jumladan, A.V. Superanskaya barcha onimlarni o'n uch guruhga, O.I. Fonyakova esa sakkiztaga ajratadi, N.V. Podolskaya esa tipologik tizimlashtirish orqali qirqqa yaqin guruhni tasniflaydi. Podolskayaning tasnifidagi o'ziga xoslik – u tomonidan onimlarning real haqiqatga nisbatan munosabatiga ko'ra mifonimlar hamda realionimlarga ajratishni o'z ichiga oladi, keyingi bosqichda esa, olim atoqli otlarning realionimlar tarkibidagi barcha tasnifiy guruhlarini ajratib chiqadi.

Y.S. Otin o'ziga qadar ishlab chiqilgan tasniflar tarkibiga atoqli otlardan konnotativ ma'noga ega bo'lganlarini alohida toifa sifatida kiritib, to'ldirgan hamda ular uchun u konnotonimlar atamasini taklif qilgan [3;279-285]. Realionimlarning poetikaga daxldor bo'lgan onimlari qatlamini ajratib ularni poetonimlar atamasi bilan yuritishni taklif qilgan olim V.M. Kalinkin hisoblanadi [4;78-98]. Poetonimlar esa, o'z navbatida, yana ichki tasniflanadi.

Shu tariqa atoqli otlarning keyingi tadqiqotlardagi tasniflarini ishlab chiqishda asosan Podolskaya tomonidan amalga oshirilgan tipologik tasnifga tayanilgan, mazkur tipologik tasnif atoqli otlarning ular atab kelayotgan obyekt(referent)larga nisbatan munosabatiga ko'ra shakllantirilib, ular quyidagicha nomlangan: antropomim, toponim, gidromim, mifonim, oykonim, agionim va h.k.

Atoqli otlarning semantik ma'nosi anglatuvchi va anglanuvchi, shakl va mazmun o'rtasidagi munosabat, so'z ichida - tilshunoslikdagi asosiy muammo bo'lib, lingvistik belgining ikkilikligi nazariyasiga borib taqaladi. Odatda, "semantika" va "ma'no" atamalari atoqli otlarga nisbatan sinonim sifatida ishlatiladi. Atoqli otlarning ma'nosi haqidagi tushunchalar turlicha fikrlar bilan ajralib turadi, ammo ular baribir bitta nuqtada kelishib olishadi: atoqli otning lingvistik belgi sifatida o'ziga xosligi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqola asosan N. V. Podolskaya [Podolskaya, 1978] tomonidan ishlab chiqilgan onimlarning tipologiyasiga asoslangan bo'lib, unda onimlarning belgilangan obyekt (referent) bilan o'zaro bog'liqligiga ko'ra asosiy toifalari: antroponimlar, toponimlar, gidronimlar, oykonimlar, atoqli otlar, hujjatnimlar, xrematonimlar, agionimlar, mifonimlar, ekklesionimlar va boshqalar belgilanadi.

Ushbu ishda taklif qilingan tasniflar va tizimlashtirishlar K. B. Zaitseva va O. I. Fonyakova asarlarida keltirilgan adabiy matnlardagi onimik birliklarning funktsional va stilistik xususiyatlari tamoyillariga, shuningdek, V. M. Kalinkinning she'riy nomlar tasnifining metodologik tamoyillariga asoslangan.

Atoqli otlar semantikasi (ma'nosi) tilshunoslikning asosiy muammolaridan biri bo'lgan belgilovchi va belgilanuvchi o'rtasidagi munosabat, so'zdagi shakl va mazmun muammosi bilan bog'liq holda muhokama qilinadi, bu tilshunoslikning asosiy muammolaridan biri bo'lib, lingvistik belgining ikki tomonlamaligi nazariyasiga borib taqaladi. Odatda, "semantika" va "lug'aviy ma'no" tushunchalari atoqli otlarga nisbatan sinonim sifatida qo'llanilishi mumkin. Atoqli otlarning lug'aviy ma'nosi haqidagi qarashlar turlicha ekani bois, bir-biridan ajralib turadi, ammo ular atoqli otlarning til belgisi ekani haqidagi qarashlar jihatidan hamfikrdir. V.D. Bondaletov o'rinli ta'kidlaganidek: "atoqli otning lug'aviy ma'nosi borasida o'zaro yakdil bo'lgan olimlar, uning qo'llanishi talqinida turli yo'nalishdagi xulosalarni ifodalashadi" [1;22].

**Tahlillar va natijalar.** Atoqli otlar nominatsiya hodisasining asosiy mahsuli deb hisoblanar ekan, ularni mutlaq nominativ birliklar deb atalishi mumkin, ularning o'ziga xosligi esa atoqli otlarning real voqelikdagi yakka obyektlarini aniq belgilash uchun qo'llanilishidir. Mazkur holatda Yu.M. Lotmanning ta'rifini qayd etib o'tish joiz, uning fikricha: "atoqli otning umumiy ma'nosi asosan tavnologikdir: predmetga berilgan u yoki bu nom farqlanuvchi xususiyatlar bilan tavsiflanmaydi, aksincha ma'lum obyektga berilgan nom faqat unga birlashtirilgan obyektningina ifodalaydi; bir xil nom bilan atalgan obyektlar to'plami, albatta, o'zlari uchun berilgan nomga ega bo'lish xususiyatidan boshqa hech qanday maxsus jihatga ega bo'lolmaydi" [5;527]. Biroq, atoqli otlar, lingvistik birliklar sifatida, ma'lum bir tilning atoqli otlar leksik qatlamining bir qismi ekanligi inkor etilmaydi, bu leksik tizimning ajralmas qismi hisoblanadi va natijada leksik, fonetik va grammatik tizimlarning parametrlari, ishlash usullari va umuman lingvistik rivojlanish xususiyatlari bilan bog'liq bo'ladi. Mazkur holat V. A. Nikonovning mashhur bayonotida aks etgan: "Atoqli ot - bu so'z va u barcha so'zlar singari til qonunlariga bo'ysunadi, ya'ni u tilshunoslik sohasiga kiradi" [6;6]. Shu bilan birga, onimlar inson nolisoniy faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, u til leksik qatlamining ma'lum bir qismini tashkil qiladi. Bu xususiyat, ehtimol, Yu. Lotmanning "atoqli otlar tizimi nafaqat tabiiy tilning kategorik doirasini, balki uning o'ziga xos mifologik qatlamini ham tashkil qiladi" degan gipotezasi uchun asos bo'lib xizmat qilgan, chunki olim ta'kidlaganidek, "bir qator lingvistik vaziyatlarda atoqli otlarning xususiyatlari boshqa lingvistik kategoriyalardagi so'zlarning

mos keladigan xatti-harakatlaridan shunchalik farq qiladiki, bu beixtiyor biz tabiiy tilning o'ziga singib ketgan, boshqacha tuzilgan boshqa til bilan ishlayotganimiz haqidagi fikrni keltirib chiqaradi" [5;527]. Ayni holat nomlarning tilshunoslik tomonidan tadqiq etilishi o'rni yoki o'rinli emasligi haqidagi shubhalarni keltirib chiqaradi. Jumladan, tilshunoslikda ayni bir tadqiqotchining nomlar – atoqli otlar talqini borasida ikki xil yondashuvlari ham ko'zga tashlanadi. Misol uchun A.K. Matveyev atoqli otlar haqida mulohaza yuritir ekan, bir o'rinda "nom – til belgisi" deya atoqli otlarning o'ziga xos lisoniy xususiyatiga ekanligini ta'kidlaydi [7;8]. Atoqli otlarni "semantik jihatdan bo'sh" belgilar, "nuqsonli", "asemantik", umuman ma'noga ega bo'lmagan va shuning uchun yorliq, belgi, yorliq vazifasini bajaradigan deb hisoblash hali ham keng tarqalgan. (O. S. Axmanova, J. Mill, A. A. Ufimtseva va boshqalar). Bu nuqtai nazar tarafdorlari atoqli otlarning o'ziga xosligini undagi ma'noning zaiflashishi (reduksiyaga uchrashi) yoki hatto uning mutlaqo yo'qligida deb bilishadi va onimlarni "faqat jonlilik, shaxs va jins semalariga ega bo'lgan to'laqonli ma'no kasb eta olish imkoniga ega bo'lmagan so'zlar toifasi" deb ta'riflashadi [8;5].

T.N. Kondratyeva, atoqli otlarning leksik ma'noga ega bo'lmagan til belgilariga aylantirilishi an'anasiga qarshi chiqib, atoqli otlarning ma'nosi voqelikni aks ettiruvchi umumiy kontekstga kiritilganda, har doim obrazlilik paydo bo'lishini ta'kidlaydi. Shaxsning umumiy va individual xususiyatlari umumiylikni tashkil etuvchi atoqli ot o'zida an'anaviylik jihatini namoyon qiladi, ammo shu bilan birgalikda avlodlararo o'rtasidagi axborot almashinuviga ta'sir ko'rsatmaydi [9;3].

Onimlarning asosiy xususiyati ularning aniq mazmunga boyligidadir. Bu borada D. I. Yermolovichning qayd etganlari alohida e'tiborga molik: "Atoqli otlar lisoniy belgi ekanliklari sababli, ular leksik nuqtai-nazardan mazmun planiga ega bo'lmasligi mumkin emas" [11;28]. Darhaqiqat, "atoqli otlar semantikasi" tushunchasining o'zi turli xil talqinlarga ega hisoblanadi. Atoqli ot odatda nafaqat leksik ma'noni, balki M.E. Rut ta'kidlaganidek, "bir tomondan, uning mazmunidan kelib chiquvchi asl motivatsion ma'no bilan cheklangan ancha tor ma'noni va boshqa tomondan esa, atoqli ot mazmunidan anglab olinishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ancha keng ma'noni" ham qamrab oladi [12]. Tadqiqotchining fikricha, "antroponimning o'zi haqiqiy ma'noga ega emas", balki u madaniy ma'nolarni o'zlashtiradi, bunday holatda esa atoqli ot "fantom (soxta, sun'iy) leksik ma'noni ifodalaydi, mazkur holatdagi atoqli ot tadqiqotchi E. Otinning ta'biri bilan aytganda, atoqli ot va appelyativ nominativ birlik o'rtasidagi oraliq shaklga - konnotonimga aylantiradi" [13], bu antroponimning faqat konnotativ ma'noga ega ekanligini ta'kidlaydi, balki hu bilan birga, atoqli ot "ijtimoiy denotatsiya va ijtimoiy ma'noga ega ekani" va atoqli otlarning leksik ma'nosining mavjudligi/mavjud emasligi hamda uning xususiyatlari tabiati masalasi "faqat atoqli otlarning ma'lum sinflariga joriy qilinishi mumkinligi masalasi hal qilinadi" [13].

So'nggi paytlarda atoqli ot tobora ko'proq semantik birlik sifatida qaralmoqda, bu ma'noning o'ziga xosligiga bog'liq bo'lib, turli xil talqinlarga yo'l ochadi. Jumladan, atoqli otning o'ziga xosligi uning gipertrofik nominativligida yotadi, bu esa unga o'ziga xos konkretlik xususiyatini bag'ishlaydi. Umumiy qoida sifatida, atoqli otning semantik tuzilishi apellyativlarning semantik tuzilishiga nisbatan izomorf hisoblanishini qayd etish mumkin, boisi "ikkalasining ham tabiati va mohiyati uchta asosiy referentsial, denotativ va ishora qiluvchi komponent bilan belgilanadi" [14;204]. Binobarin, atoqli otning semantikasini o'rganishda unga tegishli yondashuvlarni qo'llash mumkin. Zamonaviy tilshunoslikda so'z semantikasi yoki so'z ma'nosi yoki ifodalovchi ma'nosini turli elementlardan tashkil topgan murakkab tuzilma sifatida talqin qiladi. Alefirenkoning fikriga ko'ra, onimlar va apellyativlar bir xil tipologik tarkibga qaramay, turli semantik mohiyatga ega. Bu farq ularning referentsial, denotativ va semantik atributlaridagi farqlar, shuningdek, ularning lingvistik semantikasi va diskurs semantikasi o'rtasidagi o'ziga xos bog'liqlik bilan izohlanadi. Olim psixolingvistika nuqtai nazaridan, so'zning semantik tuzilishida majoziy, denotativ va semantik makrokomponentlar mavjud ekanini qayd etadi [13;46]. So'zning semantik tuzilishining psixolingvistik nuqtai nazardan murakkabroq gradatsiyasi A.A. Zalevskaya tomonidan tasvirlab berilgan. "Ma'no" tushunchasining murakkab ekanligi allaqachon A.A. Leontev tomonidan ta'kidlangan bo'lib, u "ma'no boshlang'ich semantik komponentlarning oddiy yig'indisi emas" deb ta'kidlagan va buni ma'noning dinamik tabiati bilan izohlagan: "ma'no, psixologik hodisa sifatida, predmet emas, balki jarayon" va hattoki "jarayonlarning dinamik iyerarxiyasi" ham hisoblanadi [15;17].

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari atoqli otlar til tizimining murakkab va ko'p qirrali birliklari ekanligini ko'rsatdi. Ularning semantik tabiati, tasniflanishi va lingvistik maqomi masalalari hanuzgacha onomastikadagi eng muhim nazariy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Tahlillar atoqli otlar nafaqat nominativ, balki semantik va madaniy axborot tashuvchi birliklar ekanligini tasdiqladi.

Atoqli otlarni tasniflashda N.V. Podolskaya tomonidan ishlab chiqilgan tipologik tasnif eng mukammal va amaliy yondashuvlardan biri sifatida namoyon bo'ldi. Shu bilan birga, atoqli otlarning ma'nosi borasida tilshunoslikda yagona fikr mavjud emasligi, bu masala turli ilmiy yondashuvlar asosida talqin qilinayotganligi aniqlandi.

Kelgusida ingliz va qoraqalpoq tillari materiallari asosida atoqli otlarning semantik, strukturaviy va funksional xususiyatlarini qiyosiy o'rganish onomastika nazariyasini yanada boyitishga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бондалетов В. Д. Русская ономастика / В. Д. Бондалетов. – Москва: Просвещение, 1983.
2. Фонякова О. И. Имя собственное в художественном тексте / О. И. Фонякова. – Ленинград : Изд-во ЛГУ, 1990.
3. Отин Е. С. Непереоформленные личные имена в гидронимии Дона

4. Калинин В. М. Голос имени / В. М. Калинин // Слово и мысль. Вестник Донецкого отделения Петровской Академии Наук и Искусств: Санкт-Петербург, Россия; Донецк, Украина: Сб. науч. тр. Гуманитарные науки. – Донецк, 1999 (1). – Вып. 1.
5. Лотман Ю. М. Семиосфера / Ю. М. Лотман. – Санкт-Петербург: Искусство-СПб, 2000.– ISBN 5-210-01488-6.
6. Никонов В. А. Имена персонажей / В. А. Никонов // Имя и общество. –Москва: Наука, 1974.
7. Матвеев А. К. Апология имени / А. К. Матвеев // Вопросы ономастики. – 2004. – № 1. – С. 7–13. Матвеев А. К. Ономастика и ономатология: терминологический этюд /А. К. Матвеев // Вопросы ономастики. – 2005. – № 2.
8. Бурцев В. А. Собственные имена в тексте и дискурсе / В. А. Бурцев //Европейские языки: историография, теория, история. Межвузовский сборник научных трудов. – Елец, 2007. – Вып. 6.
9. Кондратьева Т. Н. Метаморфозы собственного имени: опыт словаря /Т. Н. Кондратьева. – Казань: Изд-во Казан. ун-та, 1983.
10. Ермолович Д. И. Основания переводоведческой ономастики: дис. ... д- ра филол. наук: 10.02.20 / Ермолович Дмитрий Иванович; МГЛУ. – Москва, 2004.
11. Рут М. Э. Антропонимы: размышления о семантике / М. Э. Рут // Известия Уральского госуниверситета – 2001. – № 20. Гуманитарные науки. Вып. 4.
12. Алефиренко Н. Ф. Спорные проблемы семантики: Монография /Н. Ф. Алефиренко. – Москва: Гнозис, 2005. – ISBN 5-7333-0164-3.
13. Леонтьев А. А. Психологическая структура значения / А. А. Леонтьев. // Семантическая структура слова. – Москва : Наука, 1971.

Ajiniyaz atindagi  
NOKIS MAMLEKETLIK  
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI  
N M P I  
1934